

**BOJXONA ORGANLARIDA QO‘G‘OZ KO‘RINISHIDAGI HUJJATLARNI
ELEKTRON KO‘RINISHGA O‘TKAZISHNING AFZALLIKLARI**

Rafikova Muattar Ravshanovna¹

¹ Bojxona instituti Umumhuquqiy fanlar kafedrasi dotsenti,
bojxona xizmati podpolkovniki, pedagogika fanlari bo‘yicha
falsafa fanlari doktori(PhD)

Turabov Umarbek Sharofiddin o‘g‘li¹

¹ Bojxona Institutni BI 324-guruh kursanti

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 04.07.2025

Revised: 05.07.2025

Accepted: 06.07.2025

KALIT SO‘ZLAR:

*Bojxona hujjatlari,
elektronlashtirish,
raqamlili transformatsiya,
sun‘iy intellekt, hujjatlar
tahlili,
avtomatlashtirilgan
nazorat, raqamli
boshqaruvi,
byurokratiyani
qisqartirish, huquqiy
asoslar.*

Ushbu maqolada 2025-yil 25-martdagi PF-57-sonli Prezident Farmoni asosida bojxona organlariga taqdim etilayotgan qog‘oz hujjatlarni elektron ko‘rinishga o‘tkazish, ularni avtomatlashtirilgan tarzda tahlil qilish, sun‘iy intellekt va raqamlili texnologiyalar yordamida hujjatlar muomalasini optimallashtirish masalalari keng yoritilgan. Shuningdek, bojxona tizimidagi mayjud muammolar, xorijiy tajriba, normativ-huquqiy asoslar va takomillashtirish yo‘nalishlari ilmiy-nazariy hamda amaliy nuqtai nazardan tahlil etilgan.

KIRISH. 2025-yil 25-martda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-57-sonli Farmoni davlat boshqaruvi sohasida navbatdagi muhim islohot bosqichini boshlab berdi. Ushbu Farmon asosida barcha davlat organlari faoliyatida

qog'oz ko'rinishidagi hujjatlardan bosqichma-bosqich voz kechish, elektron hujjatlar aylanishini joriy qilish, raqamli texnologiyalar yordamida boshqaruvni optimallashtirish vazifasi belgilandi. Jumladan, bojaxona organlari faoliyati bu borada markaziy o'rinda turib, tashqi savdo operatsiyalarida hujjatlar muomalasi va ularni tahlil qilishning zamonaviy, tezkor va shaffof mexanizmlarini joriy qilish ehtiyoji ortib bormoqda.

Mamlakatimizda davlat boshqaruvi sohalarini raqamlashtirish, ularni zamonaviy texnologiyalar asosida optimallashtirish borasida tub islohotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, bu islohotlar 2025-yil 25-martda qabul qilingan "Davlat bojaxona xizmati organlarining faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-57-son Prezident Farmoni orqali yangi bosqichga ko'tarildi. Ushbu farmonda davlat organlari, shu jumladan, bojaxona tizimi faoliyatida byurokratiyani kamaytirish, qog'oz ko'rinishidagi hujjatlardan voz kechish, elektron axborot almashinuvi va raqamli nazorat mexanizmlarini joriy qilish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangani beziz emas. Zero, bojaxona organlari tashqi iqtisodiy faoliyatning markaziy halqasidir va bu sohadagi hujjatlar muomalasini raqamlashtirish davlat xavfsizligi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi.

Bugungi kunda bojaxona organlariga taqdim etilayotgan ko'plab hujjatlar hozirgi kunga qadar qog'oz shaklida taqdim etiladi. Misol tariqasida, eksport-import shartnomalari, hisob-fakturalar, yuk xatlari, tovar-transport hujjatlari, sertifikatlar va boshqa texnik-ijro hujjatlarni keltirish mumkin. Bu hujjatlarning aksariyati turli formatlarda, ayrim hollarda qo'lda to'ldirilgan shaklda bo'ladi. Bunday muhitda inson omiliga bog'liq xatoliklar, hujjatlarning qalbakilashtirilishi, takroriy topshirilish holatlari va ma'lumotlarning o'zaro nomuvofiqligi kabi muammolar yuzaga chiqmoqda. Natijada bojaxona to'lovlar to'liq undirilmay qolish, noqonuniy import-eksport amaliyotlari va hujjat soxtalashtirish kabi xavfli holatlarga zamin yaratiladi.

Qog'oz hujjatlar muomalasidagi ushbu tizimli muammolarni bartaraf etishning eng samarali yo'li ularni elektron shaklga o'tkazishdan iboratdir. Elektronlashtirish orqali birinchidan, hujjatlarning rasmiyligini elektron raqamli imzo orqali tasdiqlash mumkin bo'ladi.[1] Ikkinchidan, ushbu hujjatlar yagona formatda avtomatik tarzda axborot bazalariga joylashtiriladi va real vaqt rejimida tahlil qilinadi. Uchinchidan, elektron tizim orqali boshqa davlat idoralari bilan o'zaro axborot almashinuvi imkoniyati yaratiladi. Misol uchun, soliq, bank, sertifikat beruvchi va statistika organlari bilan integratsiyalashgan tizim orqali kontrakt, to'lov va yuk ma'lumotlarining ishonchliligi aniqlanadi.

Bojaxona tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarini tatbiq etish orqali elektron hujjatlarni tahlil qilish jarayoni yuqori aniqlik va tezlik bilan amalga oshirilishi mumkin. Natural Language Processing (NLP) texnologiyalari yordamida matnli hujjatlarning strukturasi avtomatik aniqlanadi, kalit ma'lumotlar ajratiladi va belgilangan mezonlarga asosan tahlil qilinadi. [2] Shuningdek, Machine Learning algoritmlari asosida risklarni baholovchi tizimlar ishlab chiqiladi. Bu tizimlar oldingi statistik ma'lumotlar asosida shubhali

operatsiyalarni avtomatik tarzda aniqlab, xodimlarga ogohlantirishlar beradi. Bunday mexanizm nafaqat bojxona auditining tezligini oshiradi, balki korrupsiya va yashirin bitimlar xavfini keskin kamaytiradi.

Xalqaro tajriba ham bu yo‘nalishda keng imkoniyatlar mavjudligini ko‘rsatmoqda. Jumladan, Singapurda barcha bojxona hujjalari raqamli shaklda topshiriladi, ular yagona “TradeNet” platformasi orqali real vaqt rejimida nazorat qilinadi. Estoniyada esa “paperless government” tamoyiliga muvofiq davlat organlari o‘rtasidagi hujjat almashinuvi to‘liq raqamli shaklga o‘tkazilgan. Koreya Respublikasi esa sun’iy intellekt asosida bojxona audit tizimini yaratib, inson aralashuviziz tahlil yuritish amaliyotini yo‘lga qo‘yan.[4] Bu kabi ilg‘or tajribalarni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish orqali milliy bojxona tizimini zamon talablariga mos ravishda modernizatsiya qilish mumkin.

Mazkur jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun tegishli huquqiy asoslar va infratuzilmaviy imkoniyatlar yaratilishi zarur. Elektron hujjat maqomini belgilovchi normativ-huquqiy hujjalari, elektron raqamli imzo bilan ishlash qoidalari, idoralararo axborot almashinuvi standarti, texnik reglamentlar va raqamli xavfsizlik bo‘yicha tartib-taomillar ishlab chiqilishi talab etiladi. Shu bilan birga, bojxona xodimlari va foydalanuvchilar uchun yangi texnologiyalar bilan ishlashga oid malaka oshirish dasturlarini yo‘lga qo‘yish zarur bo‘ladi. Bu esa raqamli madaniyatni shakllantirish va islohotlarning barqarorligini ta’minlaydi.

PF-57-son Prezident Farmonida belgilangan vazifalar, xususan, davlat boshqaruvining barcha bosqichlarida qog‘oz hujjat aylanishidan voz kechish, “raqamli infrastrukturani rivojlantirish”, “sun’iy intellektni joriy qilish” kabi konseptual yo‘nalishlar bojxona sohasida chuqur islohotlar olib borishga mustahkam huquqiy asos yaratdi[3]. Bojxona organlarida hujjalari aylanishini raqamlashtirish nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki xalqaro savdoda ishtirok etayotgan subyektlar uchun qulay, shaffof va xavfsiz muhitni yaratadi. Bu esa O‘zbekistonning jahon iqtisodiy tizimidagi integratsiyasini jadallashtirish, xorijiy investorlar ishonchini mustahkamlash va korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi tashabbuslarni kuchaytiradi.

Bojxona tizimini raqamlashtirish va hujjalari muomalasini elektron shaklga o‘tkazish borasida quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

Yagona elektron boshqaruvi platformasini yaratish muhim ahamiyatga ega. Bu platforma barcha bojxona hujjalari, arizalar, deklaratsiyalar va tegishli ilovalarni yagona axborot tizimida qamrab oladi. Shuningdek, ushbu platforma turli davlat organlari, banklar, tashqi savdo operatorlari va eksport-import subyektlari o‘rtasida integratsiyalashgan axborot almashinuvi imkoniyatini yaratadi. Yagona platforma yordamida barcha hujjalari real vaqt rejimida kuzatiladi, tahlil qilinadi va arxivlanadi.

Tashqi savdo ishtirokchilari bilan hujjat almashinuvini ishonchli, shaffof va buzilmas shaklda amalga oshirish uchun blokcheyn texnologiyalarini joriy etish taklif etiladi. Blokcheyn asosidagi tizimlar hujjatlarning har bir versiyasini aniqlik bilan qayd etadi, ularni

o‘zgartirishga yo‘l qo‘ymaydi va barcha ishtirokchilar uchun ishonchli audit izini ta’minlaydi. Bu esa bojxona tizimida hujjatlarning qalbakilashtirilishini oldini olish va savdo jarayonlarini soddalashtirish imkonini beradi.

Hujjatlarni avtomatik tahlil qilishda Natural Language Processing (NLP) texnologiyalaridan foydalanish zarur. Ayniqsa, skaner qilingan hujjatlar orqali matnlarni tanib olish (OCR) hamda ularning mazmunini avtomatik semantik tahlil qilish imkoniyatini beruvchi tizimlar joriy etilishi kerak. Bu nafaqat tekshirish jarayonini tezlashtiradi, balki risklarni aniqlash tizimlarining aniqligini ham oshiradi. NLP asosida kontrakt matnlari, invoys va boshqa tijorat hujjatlarining mazmuni avtomatik tarzda tahlil qilinadi, va normativ hujjatlar bilan mosligi aniqlanadi. [2]

Elektronlashtirish - bu an'anaviy jarayonlar, xizmatlar yoki tizimlarni raqamli texnologiyalar yordamida avtomatlashtirish yoki o‘zgartirish jarayonidir. Bu jarayonlar odatda kompyuter tizimlari, dasturiy ta’minot, internet va boshqa raqamli resurslar yordamida amalga oshiriladi. Elektronlashtirish, asosan, ma'lumotlarni tezroq va samaraliroq boshqarishga, axborot almashishni osonlashtirishga, hamda tashkilotlar va foydalanuvchilar o‘rtasida interaktiv aloqalarni takomillashtirishga qaratilgan. Elektron hujjat aylanishiga bosqichma-bosqich, lekin majburiy tarzda o‘tishni belgilovchi tartib joriy qilinishi kerak. Ya’ni, avval ayrim tovar guruhlari yoki bojxona postlari bo‘yicha pilot loyihibar doirasida boshlangan tajriba, keyinchalik butun respublika bo‘yicha majburiy standartga aylantiriladi. Bu orqali hujjatlar muomalasi yagona texnik formatga keltiriladi va raqamli boshqaruvning izchil ishlashi ta’milanadi.

Bojxona hujjatlarining uzluksiz saqlanishi, arxivlash va qidiruv imkoniyatlarini kuchaytirish maqsadida “elektron arxiv” tizimini joriy etish lozim. Bu tizim orqali barcha hujjatlar, ular bo‘yicha o‘zgartirishlar va tahlil natijalari tizimli ravishda saqlanadi. Elektron arxiv tizimi orqali foydalanuvchilar hujjatlar tarixini, oldingi versiyalarini, tegishli ruxsatnomalar yoki qarorlarni tezkor tarzda ko‘rib chiqish imkoniga ega bo‘ladi.

Ushbu takliflar bojxona tizimining raqamli transformatsiyasini chuqurlashtirish, byurokratik to‘sqliarni bartaraf etish, xalqaro standartlarga mos, tezkor va xavfsiz elektron hujjatlar muomalasini yaratish yo‘lida muhim qadamlar bo‘lib xizmat qiladi. Ularning bosqichma-bosqich joriy qilinishi PF-57-son Farmonida belgilangan maqsadlar va vazifalarning amaliy ifodasi bo‘lishi shubhasizdir.

Xulosa qilib aytganda, qog‘oz shaklidagi hujjatlarni elektron ko‘rinishga o‘tkazish bojxona tizimining shaffofligi, tezkorligi va samaradorligini oshirishda muhim bosqichdir. 2025-yil 25-martdagи “Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-57-son Prezident Farmoni ushbu o‘zgarishlarning normativ-huquqiy poydevorini yaratgan. Elektron hujjatlar aylanishi orqali inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklar kamayadi, hujjatlarni avtomatik tahlil qilish imkoniyati paydo bo‘ladi, shuningdek, korrupsion xavflar sezilarli darajada qisqaradi.

Kelgusida bojxona sohasini to‘liq raqamlashtirish orqali iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash, soliq va bojxona to‘lovlarining to‘liq va shaffof undirilishini ta’minlash, xalqaro savdo muhitini yaxshilash mumkin bo‘ladi. Ushbu yo‘nalishda ilmiy-amaliy izlanishlarni davom ettirish esa raqamli iqtisodiyot talablariga mos keladigan, zamonaviy boshqaruv tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.03.2025dagi “Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-57-sonli Farmoni.
2. Jurafsky, D., & Martin, J. H., “Speech and Language Processing: An Introduction to Natural Language Processing, Computational Linguistics, and Speech Recognition” darsligi, 2023.
3. Davlat bojxona qo‘mitasi rasmiy axborotlari - www.customs.uz.
4. Jahon bojxona tashkiloti hisobotlari - www.wcoomd.org.